

## OILA PSIXOLOGIYASI

*Chirchiq davlat  
pedagogika universiteti  
Pedagogika fakulteti  
Amaliy psixologiya 23/1 guruh talabasi*  
**Ergasheva Mazluma Xusan qizi**

**Annotatsiya:** ushbu maqola orqali siz oilada yuzaga keladigan kichik va katta muammo, farzand tarbiyasi, oilani mustahkamlovchi, oilaga doir barcha masalalarni o'qib, bilib olishingiz mumkin.

**Kalit so'zi:** oila tushunchasi, farzand, oila, jamiyat, oila qadriyatlarini, oilaviy qonun qoidalar va hokazolar.

### “OILA MEN UCHUN MUQADDAS”.

Muqaddasligi shuki, avvalambor qayerda ishlashidan qat'i nazar, kim bo'lishidan qat'i nazar, agar oilada tarbiya, oilada muhit, oilada halollik, munosabat tarbiyaga alohida e'tibor bermasa, hech qachon natija bo'lmaydi. Shuning uchun, men farzand tarbiyasiga katta e'tibor beraman. Har bitta farzand va naberalarimni alohida xarakterini bilaman, orzusini, istagini bilaman. Uning har biriga alohida munosabatim bor deyilar Sh.M. Mirziyoyev.

Oila kichik vatan, oila tinch bo'lsa, baxtli bo'lsa, vatan tinch bo'ladi deb, ta'kidlagan ekan yurt boshimiz.

Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir, hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega. O'zbekiston Respublikasining yangi Oila kodeksi Oliy Majlisining 1998 yil 30-apreldagi Qarori bilan qabul qilindi va 1998 yil 1-sentabrdan amalga kiritilgan.

Oila ijtimoiy, Tabiiy omillar asosida shakllangan kichik jamoa sifatida ikki jinsga mansub bo'lgan shaxslar o'rtasidagi munosabatlarning birga hayot qurib nasl qoldirish, faqat farzandni dunyoga keltirish emas, balki ularning ma'naviy va ijtimoiy kamol toptirib, hayotga nustaqil qadam qo'yishga sharoit yaratishdir. Oila jufflik qonuni asosida yuzaga keladi, bir erkakning o'z yohud bir ayolning o'zi oila bo'la olmaydi. Bundan tashqari oila faqat er va xotindagina iborat emas.

Oila er va xotindan tashqari urning ota-onasi ya'ni qaynota va qaynotasidan iborat ko'p bo'g'in xonadon.

Oilani bir qancha funksiyalari mavjud bularga;

\*iqtisodiy ,

- \*Reproduktiv,
- \*bolani tarbiyalash funksiyasi,
- \*manaviy va marifiy muloqot va h.

Oila jamiyatning ma'naviy –marifiy ,ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishga poydevor bo'ladigan asosiy insitutdir!

Oilaviy qonun qoidalar bu ma'lum bir talablar va majburiyatlar to'plami hisoblanadi.Oila yuzaga kelganda so'ng o'zlariga turlicha qoidalar yaratib,shunga bo'ysinishni talab qilishadi.Misol uchun telefonni ikki soatdan ko'p ishlatmaslik.Qiz bolalarni soat 18:00dan keyin ko'chaga chiqarmaslik aniqrog'l chiqmasliklari shu kabi qoidalar.

Har bitta oilaning o'zini qadriyatlari mavjud.Oila qadriyatlari mavjud.Oila qadriyatlari bu oila haqidagi ta'surotlar,tasavvurlar,barcha oila a'zolari tomonidan maqullanib kelayotgan idealar.Bu jarayonga ko'p misollar keltirishimiz mumkin.

Misol uchun to'y marakalarni kichik ko'rinishda o'tkazishi,tug'ilgan kunlarni o'tkazish shu kabilar.

Ko'rib turibmizki, yuqoridagi jummalarda juda ko'p ma'no bor.Chunki,hamma narsa oiladan boshlanib borishini bilamiz.Oilamizdagi muhit qanchalik yaxshi bo'lsa,bir-biriga bo'lgan mehr-muhabbat shunchalar oshadi.Oilaviy munosabatlar tizimining rivojlanishi nikohga kiruvchilar soning kamayishi va nikoh uchun shirk tanlash tartiblarning qat'iy belgilanishi yo'nalishida ro'y bergan.Har bir oila nikohdan boshlanadi .Hozirgi kunda eng murakkab muammolardan biri bu kelin tanlash.Onajonlaimiz o'zini obro'larini o'ylagan holda kelin tanlashmoqda.Bu paytda o'g'il farzanddan fikr so'ralmayapti.To'g'ri hamma farzandini baxtli bo'lishini xihlaydi,lekin jamiyatimizda bolasini baxtli bo'lishini xohlab uning rayiga qaramastan baxtsiz qilayotkanlar juda-juda kop uchramoqda.Bulardan tashqari oila qurishga tayyor bo'lmagan o'g'il –qizlarimizni ya'ni erta nikoh qo'rish ham oiladagi ko'pkina kelishmovchiliklarga sabab bo'lmoqda.Alohida aytib o'tishim kerakki,ortiqcha sar harajat,qaynonalarni kelinlardan talab qiladigan uy uchun kerakli narsalar,bularning barchasi kelajagi bor oilani ham barbod qiladigan muhim sabablarga aylanmoqda.Aynan shunday qaynonalarni nima qilishimiz mumkin?

Nima qilsak yuqoridagi muammolar yuzaga kelmaydi digan savolga man quydagicha javob bermoqchiman.

Ayni payta har bitta mahallaga psixolik joriy etsak yaxshi bo'ladi deb o'ylayman.

Shunda psixoloklar har bitta oila bilan suhbatlashishi kerak bo'ladi.Har bitta oilaga kirganida ularning bir biriga bo'lgan munosabati chuqur

o'rganilishi kerak. Qaynona kelin bilan qanday kelini esa qaynonasi bilan yoinki farzandlarga bo'lgan munosabati ,hatti harakatini kuzatib har bittasi bilan chuqurroq ishlashi kerak bo'ladi.

Keyin esa har hafta yoki ikki, uch haftada bir marta mahalada mavjud bo'lgan Yoshi kotta ayolarni yani qaynonalarni yig'ib ular bilan hamkorlikda trening mashg'ulotlarni olib borishi kerak. Yomon odatlarni ,hozirgi oilaning bo'zilishiga sabab bo'ladigan muammolarni sahna ko'rinishida yoritib brish kerak. Shunda buni ko'rgan onajonlarimiz agar shu xatolarga yo'l qo'ygan bo'lsalar o'ylashadi tug'ri va notug'ri ishlarni ajratib borishadi. Bu oiladagi munosabatni unchalikham yuqori bo'lmasa ham anchagina yaxshilashga yordam berishiga ishonaman.

Oila qo'rgandan so'ng har bitta oilada oila davomchilari dunyoga keladi. Bunda ota-onalarning ma'sulyati yan bir karra oshadi. Farzand to'g'ilgandan so'ng otalarimiz uni yeb ichish bilan ta'mirlab to'rsa onalar esa, tarbiyasi bilan shug'illanishadi.

Biz bilamizki farzand ulg'aygan sari u har xil yosh davrlarni boshidan kechiradi. Bulardan utish unchalikham oson emas. Bola ulg'aygan sari uning harakteri shunchalar o'zgarib boradi. Ayniqsa o'zmirlik davrida davrida bolaga juda katta ahamiyat berish kerak. Chunki, bu davrda garmonlar almashinuvi jadal kechadigan jarayon hisoblanadi. Bunda bolalarda ko'p ko'zatiladigan jarayonlardan biri bular ularning jizzaki bo'lishi, bitta gap kam ,ikkta gap ko'p bo'lib qolishi, gap qaytaishlar, arzimagan narsaga xafa bo'lishlar va yig'lashlar, ko'chada do'st izlashlar kabi jarayonlar sodir bo'lib turdi.

Bu payda ota-onalar sabr ila ularga yaxshi gapirib , arzimagan yutug'ini ham maqtab erkalab turishsa bu yosh davrdan ham osongina o'tib olishadi.

Shuni aytib o'tishim joyizki bola tug'ilganidan kegin hamma narsani bilib tug'ilmaydi. U xuddi oq qog'oz misoli. Bu qog'ozni ota –onalar bergan ta'lim tarbiyasi, muomalasi, xulq-atvori o'rgatish natijasida rang berib kelinadi. Qachon ota-ona farzandiga mehrini ayamstan berib , qichoqlab, vaqt –vaqti bilan erkalab , e'zozlab katta qilasa ota-onaga nisbatan bolada mehr shunchalik ortaveradi.

Agar oilada bolaga tug'ri tarbiyada bo'lmasa, tug'ri muomala qilmasa bola shaxs sifatida shakillana olmaydi. Ota-ona o'z farzandini qanchalik e'tiborsiz bo'sa bola ruhan va jismonan ezilab , baxtli va kerakli inson deb his qila olmaydi. Hayot tarzimizda shunday oilalar haqida eshitamiz. Odiygina ota-ona o'rtasidagi ziddiyat , kelishmovchilik bola ruhiyatiga katta ta'sir qiladi. Buni esa afsuski, ota-onalar yaxshi tushunishmaydi.

Mashhur psixolog olim shunday degan ekalar;”baxtli bolalik bu oiladagi quvonchni ,hamjihatlikni hamda ota-onalarning bolaga g'zamxo'rligining samarasidir”.

Bola tug'ilganidan boshlab ota-onasi davrasida ulg'ayadi.Bola kotta bo'lgan sari ota –onasidan ko'rgan hatti-harakatini bajara boshlaydi.Agar oilada ota-ona va oila a'zolari bir biriga yaxshi munosabatda bo'lsa ,bir-birini hurmat qilsa,tug'ri so'z bo'lsa,xushmuomala,mehrubon bo'lsa bola xuddi shu yaxshi fazilatlarni o'zida shakillantirib boradi.Agar yuqoridagi tushunchalarning teskarisi bo'lsachi,ota-onaning urishishlari,bolasiga yaxshilarcha munosabatda bo'lsa,yolg'onchi,ayolni eriga nisbatan muomalasi yaxshi bo'lmasa ,hurmat qilmasa kelajakda u boladan qanday odam chiqshini tasavvur qilib kuring-a? Xuddi shunday oilada kotta bo'lgan bolada ham xuddi oilasida sodir bo'lgan jarayonlar shubhasiz kuzatiladi.

Shuni unutmashimiz kerakki,farzand ota-onasini maslahatidan ko'ra ularning amallarini yaxshi bajaradi.Shuning uchun kattalar doim farzandlarga o'rnak bo'ladigan yaxshi amallarni bajarishi kerak, deb o'ylayman. Hozirgi kunda farzand tarbiyasida yo'l quyadigan katta xato bu o'z bolasini urishi.oilada farzandaga turli xil tazyiqlar o'tkazilsa bola ruhan ezilib borishi kuzatiladi.Keyin bola ulg'ayganida uning ongida hamma narsani kuch bilan hal qilish kerak degan tushuncha yotadi.Va kelajakda do'st ortira olmasligiham mumkin.Shuningdek oila qurishga ham qiynaladi.Chunki ,uning ongida oilasida ko'rgan jarayonlari bo'lishi kerak degan fikr tinch quymaydi.Ayollarga nisbatan munosabati o'zgaradi.Bunday bolalar hamma odamlarini xudi oila a'zolari kabi ko'radi, ularning nazdida dunyo faqat zo'ravonlar bilan to'lgandek, ko'rinadi, yani hamma uning uchun bir-xildir!

Bu bilan nima dimoqchiman farzandni faqatgina erkalab uni boshingizda olib yuring dimoqchi emasman.Hamma narsani me'yori bolgani kabi ,farzand tarbiyasida ham vaqt –vaqti bilan qo'laniladigan jarayonlarham bor.tarbiya jarayonida bolaning ham fikrlarini eshtiz lozim ,uni tinglay olishni bilish kerak.Misol uchun oladigan bo'lsak maktabda ikkita do'st o'rtasida janjal paydo bo'ldi deylik.Shu payt bita bolani umuman aybi yo'q uni do'sti har xil nohaq gaplar bilan xaqorat qildi deb faraz qilaylik.Shunda haqorat qilgan bola hamma aybni aybi yo'q bolaga ag'dardi.Shunda aybi yo'q bolani otasi yoki onasi uni eshitmagan holatda uni urishishti,urdi har-xil jazolar berdi.Bolaning hayotida birinchi marta nohaqlikka uchragan kuni aynan o'sha kuni bo'ladi. Unda ishonch degan tuyg'u butkul yo'qola boshlaydi.Agar shu jarayonning teskarisi bo'lsa –chi? Ota-ona farzandini eshitib uning haq bo'lsa haqligini ,nohaq bo'lsa,nohaqligini aytsa,bolasini do'stiga emas bolasiga ishonsa uni qo'lab quvvatlasa bola kelajakda

o'ziga ishonadigan ,qadini tik tutib yuradiga shaxs bo'lib yetiladi.Keyin bolani qilgan ishlarini ota-oana hal qilmasligi kerak ,unga to'g'ri maslahat berib yo'naltirish kerak.Shunda bola o'z muammosini o'zi hal qiladigan ,qo'rqmas,mard va jasur bo'lib ulg'ayadi. Agar farzandingiz mustaqil inson bo'lishini xohlasangiz va barkamol inson bo'lib yetilishini xohlasangiz o'z ustingizda ko'proq ishleng.Nimada xatolika yo'l qo'yganingizni o'ylang va uni kech bo'lmastan to'g'irlang.

Biz yuqorida farzand atrabiyasidagi xatolar va kamchiliklar haqida gaplashtik.Hozirgi kun ota-onalari farzandiga e'tiborsiz qolmoqda.Deyarli barcha insonlar telefonga mukasidan ketishish natijasida bolasini nima qilishi bilan umuman qiziqmayaptilar.

Maqolamni yakunlashdan oldin bita hikoya haqida qisqacha aytib o'tsam.

Kunlarning birida o'qituvchi dars jarayonida o'quvchilardan kelajakda kim bo'lasiz deb so'rapti.Shunda bita bola "o'qituvchi",bitasi esa "doctor",yana bitasi "muhandis"bo'lishini aytibti.Shunda bita bolakay men kelajakda" telefon" bo'lishni xihlayaman -deb aytgan ekan.Shu payt o'qituvchi xayron qolib nega telefon debti.Shunda bola agar men telefon bo'lsam onam ovqat qilsalarham,ishga borsalarham,uy ishlari bilan shug'ilansalar ham ,mehmondorchillika borsalarham hattoki,uxlashga yotsalarham menga bir marta bo'lsaham qarab qo'yadi degan ekan.Qisadan qissa shuki bolangizga telefondan ham ko'proq e'tiborli roq bo'lishingizni xohlardim.

Xulosa:Aziz ota-onalarimiz farzandingiz tug'ilganidan so'ng bolam katta odam bo'lishi kerak,yaxshi joyda ishlaydigan bo'lishi kerak,ota-onasini hurmat qilishi kerak degan so'zlarni shunchaki aytmastan uni amalda bajarish kerak.

Harakat,harakatda barakat degan maqol xalqimizda bejizga aytilmagan.Farzandning kelajakda qanday inson bo'lishi buning barchasi ota-onalarning qo'lidadir.Chunki qush uyasida ko'rganini qiladi.

Farzandingiz bilan o'tkazgan baxtga to'la kuningiz afsuski, qaytib kelmaydi.Shuning uchun kuningizni oila a'zolaringiz ichida baxtli o'tkazishga harakat qilin!

### FOYDALANGAN ADABIYOTLAR!

- 1)Oila psixologiyasi.G'.B.Shoumarov,I.O.Haydarov,N.A.Sog'inov.
- 2)Oila psixologiyasi.Vasila Karimova.
- 3)Oila psixologiyasi.Djalilova Sojjida.

- 4) Oilada bola tarbiyasidagi muammolar .Mardayeva Muborak.
- 5) O'smirlik davr psixologiyasi.Ergasheva Mazluma Xusan qizi.
- 6.kun.uz